



«MARKAZIY OSIYO TAFAKKURIDA ISLOM FALSAFASINING TADRIJIY RIVOJI»

«ПОЭТАПНОЕ РАЗВИТИЕ ИСЛАМСКОЙ ФИЛОСО-
ФИИ В МИРОВОЗЗРЕНИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ»

«STAGED DEVELOPMENT OF ISLAMIC PHILOSOPHY
IN THE WORLDVIEW OF CENTRAL ASIA»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI



Buxoro shahri, 2025-yil 15-may

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MARKAZIY OSIYO TAFAKKURIDA ISLOM
FALSAFASINING TADRIJIY RIVOJI**

**«ПОЭТАПНОЕ РАЗВИТИЕ ИСЛАМСКОЙ
ФИЛОСОФИИ В МИРОВОЗЗРЕНИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ
АЗИИ»**

**“STAGED DEVELOPMENT OF ISLAMIC PHILOSOPHY
IN THE WORLDVIEW OF CENTRAL ASIA.**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY -NAZARIY
KONFERENSIYA**

Buxoro shahri, 2025-yil 15-may

АННОТАЦИЯ

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги кўмагида Бухоро давлат техника университетининг “Ижтимоий фанлар ва жисмоний маданият” кафедраси “Марказий Осиё фалсафий тафаккурида ислом фалсафасининг тадрижий ривожини” мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжумани 2025 йил 15 май куни Бухоро шаҳрида ўтказилди. Халқаро анжуман “Ўзбекистон-2030” стратегиясида илгари сурилган устивор вазифалар ва тавсиялардан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 24 майдаги “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2021 йил 26 мартдаги “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги қарорлари ҳамда 2025 йил 21 апрелдаги “Фуқароларнинг виждон эркинлиги ҳуқуқи кафолатларини янада мустаҳкамлаш ҳамда диний-маърифий соҳадаги ислохотларни янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” фармонидан келиб чиққан вазифаларни ижросини таъминлаш, ёшларни ватанпарвар, маънавий жиҳатдан баркамол авлод этиб шакллантириш, янгича фикрлайдиган фуқароларни тарбиялаш, улар онгида Ватанга садоқат ва юртпарварлик ғояларини янада чуқурроқ сингдириш мақсадида ташкил этилди. Анжуманда Шарқ ва Ғарб мутафаккирлари ижодида фалсафа ва ислом динининг ўзига хос уйғунлиги, Марказий Осиё мутафаккирларининг ислом фалсафаси ривожланишидаги ўрни, ислом фалсафасида табиатни асраш, атроф-муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш, экологик масалаларнинг ёритилиши, тасаввуф намоёндалари ғоялари, етти пир меросини ўрганиш ва тарғиб қилиш “Зиёрат туризми”ни ривожлантириш омили эканлиги масалаларига оид тадқиқотлар муҳокама этилди. Анжуман тўпламида Италия, Россия Федерацияси, Тожикистон, Қозоғистон, Қирғизистон Республикалари ва Ўзбекистон олимлари ва тадқиқотчиларининг мақолалари чоп этилган.

АННОТАЦИЯ

15 мая 2025 года в Бухаре кафедрой «Социальные науки и физическая культура» Бухарского государственного технического университета при поддержке Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан была проведена международная научно-теоретическая конференция на тему «Поэтапное развитие исламской философии в мировоззрении Центральной Азии».

Международная конференция организована в целях обеспечения реализации задач, вытекающих из приоритетных задач и рекомендаций, изложенных в Стратегии «Узбекистан-2030», Постановлениях Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева от 24 мая 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сохранения, исследования и популяризации древних письменных источников», от 26 марта 2021 года «О коренном совершенствовании системы духовно-просветительской работы» и Указе «О мерах по дальнейшему укреплению гарантий права граждан на

свободу совести и поднятию на новый этап реформ в религиозно-просветительской сфере» от 21 апреля 2025 года, а так же, в целях формирования из молодежи патриотичного, духовно зрелого поколения, воспитания прогрессивно мыслящих граждан, дальнейшего формирования в их сознании идей преданности Родине и патриотизма.

На конференции обсуждались уникальное сочетание философии и ислама в творчестве восточных и западных мыслителей, роль мыслителей Центральной Азии в развитии исламской философии, сохранение природы в исламской философии, бережное отношение к окружающей среде, освещение экологических проблем, идеи суфизма, изучение и популяризация наследия Семи Пиров как фактора развития «паломнического туризма». В сборнике конференции опубликованы статьи учёных и исследователей из Италии, Российской Федерации, Таджикистана, Казахстана, Кыргызстана и Узбекистана.

ANNOTATION

On May 15, 2025, in Bukhara, the Department of Social Sciences and Physical Education of the Bukhara State Technical University, with the support of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan, held an international scientific and theoretical conference on the topic "The phased development of Islamic philosophy in the worldview of Central Asia".

The international conference is organized in order to ensure the implementation of the tasks arising from the priority tasks and recommendations set out in the Strategy "Uzbekistan-2030", the Resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev dated May 24, 2017 "On measures to further improve the system of preservation, research and popularization of ancient written sources", dated March 26, 2021 "On the radical improvement of the system of spiritual and educational work", and the Decree "On measures for the further strengthening of guarantees of citizens' right to freedom of conscience and for advancing reforms in the religious and educational sphere to a new stage" dated April 21, 2025, as well as, in order to form a patriotic, spiritually mature generation from young people, educate progressively thinking citizens, further form ideas of devotion to the Motherland and patriotism in their minds.

The conference discussed the unique combination of philosophy and Islam in the works of Eastern and Western thinkers, the role of Central Asian thinkers in the development of Islamic philosophy, the preservation of nature in Islamic philosophy, careful attitude to the environment, coverage of environmental issues, ideas of Sufism, the study and popularization of the heritage of the Seven Pirs, as a factor in the development of "pilgrimage tourism". The conference collection contains articles by scientists and researchers from Italy, the Russian Federation, Tajikistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan and Uzbekistan.

- MAS'UL MUHARRIR:** Navro'zova Gulchehra Ne'matovna,
Buxoro davlat texnika universiteti
"Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrası
professori, f.f.d.
- Tahririyat a'zolari:** **Zoyirov Erkin Xalilovich**, Buxoro davlat texnika
universiteti "Ijtimoiy fanlar va jismoniy
madaniyat" kafedrası mudiri, f.f.d(DSc).
Bafoyev Feruz Murtazoyevich, Buxoro davlat
texnika universiteti "Ijtimoiy fanlar va jismoniy
madaniyat" kafedrası dotsenti, s.f.n.
Avliyoqulov Uchqun Mardanovich, Mir Arab
oliy madrasasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori.
Isayeva Dilbar Abdukadirovna, Buxoro davlat
texnika universiteti, Ijtimoiy fanlar va jismoniy
madaniyat" kafedrası dotsenti, f.f.b.f. d(PhD).
- TAQRIZCHILAR:** **Yuldashxodjayev Haydar Hashimxanovich**,
"Yangi asr universiteti" kafedra mudiri, t.f.n.
Boltayev Abduraxim Amonovich, "Mamun
universiteti" professori, f.f.d(DSc).
Yunusova Gulandom Samiyevna, Buxoro davlat
texnika universiteti "O'zbek va xorijiy tillar
kafedrası" professori, f.f.d(DSc).
- To'plovchi va
nashrga tayyorlovchi:** **Sultonova Latofat Saydullayevna**, Buxoro davlat
texnika universiteti "Ijtimoiy fanlar va jismoniy
madaniyat" kafedrası katta o'qituvchisi

nafsni yomonlik manbai sifatida emas, balki axloqiy kamolot sari yo'naltirilishi zarur bo'lgan imkoniyat sifatida ko'rish mumkin.

Bahmanyar o'zining "Risola fi maratib al-mavjudat" asarida mavjudlikning bosqichma-bosqich tushunchasini ishlab chiqqan bo'lib, bu g'oya G'arbdagi metafizik tafakkurda ham aks etgan. Ayniqsa, G'arbda "ontologik zinalar" deb ataluvchi kontsepsiyaga Bahmanyar asarlari orqali birlamchi ta'sir bo'lganini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, Mir Damad, Mulla Sadra kabi so'nggi musulmon faylasuflari Bahmanyar asarlariga bevosita murojaat qilganlar. Bu holat Bahmanyarni Islom falsafasi tarixida muhim bo'g'in sifatida tasvirlaydi. Uning ilmiy-axloqiy qarashlari, nafaqat ustozga sadoqat, balki tafakkurda mustaqillik namunasi sifatida qadrlanadi.

Abu Hasan Bahmanyor Islom falsafasining o'ziga xos yirik namoyandalardan biridir. U nafaqat Ibn Sinoning shogirdi sifatida, balki mustaqil tafakkur egasi bo'lgan faylasuf sifatida ham qadrlanadi. Uning "Tahsil" asari va boshqa risolalari orqali Sharq va G'arb tafakkuridagi falsafa va din uyg'unligi haqida mukammal tasavvur hosil qilish mumkin.

Bahmanyorning axloqiy-falsafiy qarashlari hozirgi davrda ham dolzarb bo'lib, inson ma'naviyati, aql, haqiqat va ruhiy yetuklik masalalarida chuqur falsafiy mulohazalarga asoslangan. Shu bois, uning merosini tadqiq etish nafaqat tarixiy yoki nazariy jihatdan, balki zamonaviy axloqiy-madaniy muhitni boyitishda ham katta ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Zahiriddin al-Bayhaqi. Tatimmat-us-Sivanil-Hikma. Lahor. 1932.-B. 91-92.
2. Shamsiddin ash-Shahrizuriy. Nuzhat-ul-arvoh va Ravdat-ul-afroh. Tripoli. 1987.-B.316-317.
3. David C. Reisman. The Making of the Avicennan Tradition. Yale. 2001. s. 313-314.

VOLTER QARASHLARIDA FRANSIYA ABSOLYUTIZMINING TAHLILI

Fayziyev Xurshid Jumayevich – BuxDU Tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi XVIII asrda Fransiya absolyut monarxiya davrida hukmronlik qilgan fransuz qirollarining faoliyati, shuningdek Volterning falsafiy yondashuvi qisqacha bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Lyudovik XIV, Lyudovik XV, Lyudovik XVI, Volter, Tyurgo, Nant edikti, Fontenblo edikti, absolyut monarxiya, ispan merosi uchun urush, avstriya merosi uchun urush, Yetti yillik urush.

Abstract: This thesis briefly describes the activities of the French kings who ruled France during the absolute monarchy in the 18th century, as well as Voltaire's philosophical approach.

Keywords: Louis XIV, Louis XV, Louis XVI, Voltaire, Turgot, Edict of Nantes, Edict of Fontainebleau, absolute monarchy, War of the Spanish Succession, War of the Austrian Succession, Seven Years' War.

Аннотация: В данной диссертации кратко описывается деятельность французских королей, правивших Францией во времена абсолютной монархии в XVIII веке, а также философский подход Вольтера.

Ключевые слова: Людовик XIV, Людовик XV, Людовик XVI, Вольтер, Тюрго, Нантский эдикт, Фонтенблосский эдикт, абсолютная монархия, Война за испанское наследство, Война за австрийское наследство, Семилетняя война.

Fransuz faylasufi Volter (1694-1778) yashagan davr, Fransiya absolyut monarxiyaning gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Volter uch fransuz qiroli: 1643-1715-yillarda Lyudovik XIV (1638-1715), 1715-1774-yillarda Lyudovik XV (1710-1774) va 1774-1792-yillarda Lyudovik XVI (1754-1793) hukmronligi davrida yashab ijod etdi. U shuningdek, Fransiya uchun og'ir oqibatlariga olib kelgan, ispan merosi uchun urush (1701-1714), avstriya merosi uchun urush (1740-1748) va Yetti yillik urush (1756-1763) guvohiga aylandi.

Lyudovik XIV hukmronligi davrida fransuz absolyut monarxiyasi o'zining kuliminatsion nuqtasiga yetdi. U markazlashgan davlat tuzishga intilib, bu yo'lda dvoryanlar qarshiligini yengib o'tishga to'g'ri keldi. Qirol dvoryanlardagi xavfni ko'rib, bir tomondan dvoryanlarni o'ziga og'dirib olish uchun, ularni nafaqalar va saroy lavozimlariga ko'mib tashlab, boshqa bir tomondan esa, barcha dvoryanlarni o'z yerlaridan uzoqda bo'lishlari uchun Versalda to'pladi [1, c.103]. Bolaligida Frona urushlarini boshidan o'tkazgan Lyudovik XIV absolyut monarxiya va monarxlarning ilohiy huquqi printsiplining sodiq tarafdoriga aylanib, 1661 yilda kardinal Mazarini vafotidan so'ng, ertasi kuni Lyudovik XIV Davlat kengashini yig'di va u bundan buyon birinchi vazirsiz mustaqil ravishda hukmronlik qilishini e'lon qildi [2, c.185]. Uning davrida Fransiya Yevropaning eng qudratli davlatiga aylanishi bejiz emas edi. Savdo va ishlab chiqarishning rivojlanishi, fransuz kolonial imperiyasining vujudga kelishi, armiyani reforma qilinishi va flotning tashkil etilishi, san'at va fanning rivojlanishi, Versalni qurilishi va nihoyat, Fransiyaning zamonaviy davlat sifatida shakllanishi — Lyudovik XIV xizmatlarining to'liq ro'yxati emas [3, c.144].

Volter Lyudovik XIV davri haqida asar yozgan. Volter tomonidan 1751-yilda yozilgan "Lyudovik XIV ning asri" nomli asarida, Volter "avlodlar uchun yagona shaxs Lyudovik XIV ning faoliyatini emas, balki eng ma'rifatparvar asrdagi odamlarning ruhini tasvirlagan" [4, p. 1]. Bu asar XVIII asrda bestseller edi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki asar Lyudovik XIV davridagi tarixiy shaxslardan tortib, diniy oqimlargacha, urushlar tafsilotlaridan tortib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy muhitgacha bo'lgan qimmatli ma'lumotlarni qamrab olgan.



“Men monarxni emas, balki o‘tgan asrni tasvirlashni xohlayman, — deb yozgandi Volter. — Men ba‘zilarning sarguzashtlari haqida so‘zlaydigan hikoyalardan charchadim, go‘yoki faqat monarxni yolg‘iz o‘zi mavjud yoki uning munosabatlaridan tashqarida hech narsa mavjud emasdek. Bir so‘z bilan aytganda, men buyuk monarxning tarixidan ko‘ra, ko‘proq buyuk asr tarixini yozyapman” (5, p.129-130). Lyudovik XIVning hukmronlik davri Fransiya tarixiga Buyuk asr sifatida kirsada, lekin muttasil olib borilgan urushlar soliqlarni ko‘payib ketishiga olib keldi. Yana bir siyosiy xato, 1685-yilda Fontenblo edikti bilan gugenotlarga, ya‘ni fransuz protestantlariga vijdon erkinligi va diniy bag‘rikenglikni to‘laqonli kafolatlovchi, Lyudovik XIVning bobosi Burbonlar sulolasi asoschisi fransuz qiroli Genri IV (1553-1610) tomonidan mamlakatdagi diniy urushlarga barham berish maqsadida 1598-yilda qabul qilingan Nant ediktini bekor qilinishi, diniy aqidaparastlikni qayta avj olishi va mamlakatdan yuz minglab protestantlarni quvilishiga sababchi bo‘ldi. Mamlakatda asta-sekinlik bilan norozilik kuchaya bordi.

Lyudovik XVning 58 yil davom etgan hukmronlik davrida esa, fransuz madaniyati rivojlanishni davom etdi. Bu davrda ko‘plab ilm-fan egalari va faylasuflar o‘zlarinig kashfiyotlari va ijodlari bilan dunyoga dong taratdilar. Davlat g‘aznasini ayamay sarflash va behuda urushlar mamlakatni holdan toydirdi. Aholining barcha tabaqalari bu urushlardan charchagan edi. Ushbu davrning progressiv fikrli kishilari bu urushlarni qoralab chiqdilar.

Volter Fransiya olib borgan urushlar xalq uchun o‘g‘ir yuk bo‘lib tushganligini ta‘kidlab, “Qirq ekyuli kishi” asarida quyidagicha fikr bildirgandi: “Qarangki, don Phelippo el discreto Fransiyaning sotib olishni xohlaganida, bizning fuqarolik urushlarimiz Fransiya Meksika xazinalarini oqib kelishiga sababchi bo‘ldilar va shu paytdan boshlab chet elda olib borgan urushlarimiz sabab, pulimizning yarmisidan mahrum bo‘ldik. Mana, bizning kambag‘alligimizning sabablaridan bir qismi”[6, B.4]. Kanadani inglizlar qo‘liga o‘tib ketishi ham fransuz jamiyatida befarqlik bilan qabul qilindi. Volter ham bunga sovuqqon munosabatda bo‘lgan. 1757-yilda Volter, Fransiya akademiyasining a‘zosi va fransuz shoiri Fransua Avgustin de Paradi de Monkrif (1687-1770) ga yozgan maktublarining birida shunday fikrni bildiradi: “Biz Kanadadagi bir necha arpan muz tufayli qit‘amizda bir-birini bo‘g‘ziga tig‘ tortgan bu bechora inson zotiga achinamiz”[7]. Volterning bunday munosabatini quyidagi faktorlar bilan sharhlash mumkin:

1. Demografik faktor. Kanada va Luizianadan iborat Fransiyaning koloniyalari ulkan hududni egallagan bo‘lsada, aholi juda siyrak joylashgandi. Ularga qo‘shni bo‘lgan Angliyaning Amerikadagi koloniyalarida esa aholi zichroq



joylashgan edi. Nazariy jihatdan olib qaraganda, Shimoliy Amerikada urush boshlanib ketsa Fransiya bu yerda uzoq muddat qarshilik qilishga qodir emas edi.

2. Dengizdagi ustunlik faktori. Angliya XVIII asrda jahondagi eng qudratli harbiy flotga ega bo'lib, fransuz floti esa bu sohada ancha orqada edi.

3. Iqlim faktori. Kanadada qishning uzoq davom etishi, Luiziana dashtlarida yomg'irni kam yog'ishi dehqonchilikni rivojlantirish uchun imkon bermasdi.

4. Xafvsizlik faktori. Inglizlarga ittifoqchi bo'lgan irokez qabilalarining tajovuzkor hujumlari fransuz kolonistlarining hayotini doimo xavf ostiga qo'yardi.

Ispan merosi uchun olib borilgan uzoq muddatli urush mamlakat aholisining tinkasini quritdi. Fransiya va Ispaniya o'z flotidan mahrum bo'lib, Buyuk Britaniya dengizda o'z hukmronligini o'matdi. XVIII asrda Buyuk Britaniyada Uilyam Pitt, Prussiyada Fridrix II va Rossiyada Yekaterina II kabi iste'dodli yirik siyosiy arboblardan o'z mamlakatlarini tarix sahnasiga olib chiqqan bir paytda, Fransiya Yevropada o'zining yetakchilik rolini yo'qota boshladi. Avstriya merosi uchun urush va Yetti yillik urush Fransiyaning ikkinchi darajali davlat darajasiga tushirib qo'ydi. Ular asosan Germaniyada, dengizda yoki koloniyalarda bo'lib o'tdi, garchi Fransiya Yevropada yuzini saqlab qolgan bo'lsada, lekin Kanada va Hindistondagi koloniyalaridan mahrum bo'ldi. Shunday qilib, Lyudovik XV davridagi mamlakatning ahvoli Lyudovik XIV davridagi ahvoldan og'irroq holatga tushib boraverdi. Mamlakatdagi og'ir vaziyat yangi monarxni reforma o'tkazishga undadi. Lyudovik XVI 1774-yilda taxtga chiqqanidan so'ng, Ma'rifatparvar fransuz faylasuflarining sevimlisi Tyurgo (1727-1781) ni Bosh nazoratchisi lavozimiga tayinlaydi. Tyurgo moliyaviy jihatdan og'ir ahvolga qolgan Fransiyaning reforma qilishga kirishdi. U reforma dasturini ishlab chiqdi. Tyurgoning reforma dasturi o'z davridagi ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan edi. Bular juda katta yangiliklar edi; Tyurgo boshqacha, yanada dahshatli narsalarni rejalashtirdi: kambag'allarga og'ir yuk bo'lgan barshchinani bekor qilish; dvoryanlar va ruhoniylarga hududiy soliqni belgilash; lekin cherkov daromadining eng kichik qismiga ega bo'lgan cherkov ruhoniylari va vikariylar ahvolini yaxshilash va monastirlarning ko'pchiligini tugatish; yer reestrini tuzish orqali soliqni teng taqsimlash; vijdon erkinligi va protestantlarni chaqirib olish; feodal rentalarini pul evaziga qaytarib olish; yagona kodeks: butun qirolik uchun bir xil og'irlik va o'lchovlar tizimi; industriyani rivojiga to'sqinlik qiluvchi qonunlar va qoidalarni bekor qilish; va nihoyat, Tyurgo ham ma'naviy, ham moddiy ehtiyojlar bilan shug'ullanganligi sababli, Ma'rifatni hamma joyda tarqatish uchun umumiy xalq ta'limini joriy etish rejasi[8, p. 426-427]. Ammo bunga o'z imtiyozlaridan mahrum bo'lishni istamaydigan Parij parlamenti va yuqori tabaqa vakillarining

qarshiligiga duch kelib, Tyurgo 1776 yilda lavozimidan ozod qilinadi. Shu tariqa barcha ish 1789-yildagi revolyutsiyaga qoldi.

Xulosa qilib aytganda, garchi XVIII asr boshlarida Fransiyada absolyut monarxiya burjua munosabatlarining taraqqiyoti uchun yo'l ochib bergan bo'lsada, lekin bu juda cheklangan edi. Mamlakatda xuddi o'rta asrlarda bo'lgani kabi tabaqalanish saqlanib qolgandi. Ilm-fan va madaniyat gullab-yashnashi bilan birga doimiy ravishda behuda urushlarni olib borilishi hamda qirollik g'aznasini sovurib yuborilishi absolyut monarxiyani tanazzul tomon yetakladi. Volter o'zining bir qancha asarlarida fransuz absolyut monarxiyasining kamchiliklarini falsafiy tahlil qilishi, uning siyosiy qarashlarining ajralmas va muhim qismi bo'lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Е.А.Куцева; Аристократическая критика французского абсолютизма конца XVII – середины XVIII века; Самарский научный вестник. № 4(5), 2013.
2. Ле Мао К. Людовик XIV и парламент Бордо: весьма умеренный абсолютизм // Французский ежегодник 2005. М., 2005.
3. Явнова И.И., Вязовцева Н.О.; Людовик XIV – “Король-солнце”; Международный научный журнал «Инновационная наука» №12-4/2016.
4. Voltaire ; *Le Siècle de Louis XIV* ;
5. Voltaire's Correspondence. Edited by Th. Besterman. V. 1 — 107. Genève, "Les Délices", 1953—1965.Vol.10.
6. Вольтер; Кирк экюли киши; Француз тилидан Х.Файзиев таржимаси; Т.,2020.
7. The Voltaire Foundation. The complete works of Voltaire, vol. 101, Correspondance XVII, 1968, lettre D 7215.
8. Victor Duruy ; *Histoire de France* ; 1854, tome II.

ISLOMDA TASAVVUF TARIQATI

To'xtayeva Shahinabonu Shuxrat qizi – BuxDPI talabasi

+998914455424, shaxinatuxtayeva20@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada islom dinining, unda tasavvuf tariqatlarining vujudga kelishi va ularning xilma - xilligi masalasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: din, islom, tasavvuf, tariqat, Qodiriya, Yassaviya, Naqshbandiya.

Din- xudo yoki xudolar, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, din- Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir.Tabiat va insonni yaratgan ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda

МУНДАРИЖА

ЗИЁРАТ ТУРИЗМИ ЖАМИЯТДА МАДАНИЙ ВА ИНСОНПАРВАРЛИК АЛОҚАЛАРИНИ	КУЧАЙТИРУВЧИ	ИМКОНИЯТ.
<i>Сиддиқова С.Ғ.</i> 5		
STAGED DEVELOPMENT OF ISLAMIC PHILOSOPHY IN THE WORLD VIEW OF CENTRAL ASIA. <i>Roberto Boltri</i> 7		
ХОЖА ЮСУФ ҲАМАДОНИЙ “КОИНОТНИНГ ИНСОНГА БЎЙСУНДИРИЛГАНЛИГИ ҲАҚИДА РИСОЛА”СИННИНГ ҲОЗИРГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ. <i>Наврӯзова Г.Н.</i> 9		
АДАБ ПО ОТНОШЕНИЮ К НАСТАВНИКУ – ОСНОВА ПОЛУЧЕНИЯ ДУХОВНЫХ ЗНАНИЙ В СУФИЗМЕ		
<i>Вильданова Г.Б., Вильданов Г.У., Мансуров М.Х.</i> 16		
МИРОВОЗЗРЕНИЕ И СУФИЙСКАЯ ФИЛОСОФИЯ ХОДЖИ АХМЕТА ЯСАВИ, ОСНОВАТЕЛЯ СУФИЗМА.		
<i>Кельгенбаева А.К., Масалимова Д.М.</i> 21		
BIRLAMCHI MANBALAR TASNIFI GA JAMIYATDAGI DINIY-SIYOSIY VA HARBIY MUHITNING TA’SIRI. <i>Zohidov Q.</i> 24		
МУСОХОНХЎЖА ДАҲБИДИЙ ТАЪЛИМОТИДА ВАҲДАТ МАСАЛАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ.		
<i>Юлдашходжаев Ҳ.Ҳ.</i> 29		
IMOM BUXORIYNING AL-ADAB AL-MUFRAD ASARI HAQIDA. <i>Elov J.R.</i> 36		
МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ЎРТА АСРЛАР ВА УЙГОНИШ ДАВРИ ОВРУПА ФАЛСАФАСИ ТАФАККУРИГА КУРСАТГАН ТАЪСИРИ ВА АҲАМИЯТИ. <i>Шадманов К.Б.</i> 44		
«МЕРА» КАК ФИЛОСОФСКАЯ КАТЕГОРИЯ <i>Саломова Х.Ю.</i> 49		
ОҒАҲИЙ ПУЛ ФЕТИШИЗМИ ВА УНИНГ МАЪНАВИЙ ЗАРАРИ ҲАҚИДА. <i>Сафарбоев М.</i> 60		
ЯЪҚУБИ ЧАРХИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИГА ОИД ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ. <i>Зойиров Э.Х.</i> 63		
MUHYIDDIN IBN ARABIY TA’LIMOTIDA DINIY E’TIQOD MASALASI. <i>Boltayev A.A.</i> 67		
MUSULMON FAYLASUFLARI TA’LIMOTLARIDA GNOSEOLOGIK VA TEOLOGIK QARASHLARNING SINTEZLASHUVI.		
<i>Siddiqov I.B.</i> 71		
ABDULQODIR GIYLONIY TA’LIMOTIDA – FAQRU FANO MASALASI. <i>Yunusova G.S.</i> 74		

MAHMUD	AZ-ZAMAHSHARIY	TA'LIMOTIDA	IRFON	
TUSHUNCHASINING FALSAFIY TAHLILI.	<i>Adilov Z.Yu.</i>			77
TASAVVUF	MADANIY	DIPLOMATIYADA	NOVATOR	YO'NALISH
SIFATIDA.	<i>Bafoyev F.M.</i>			82
TASAVVUFIIY	G'OYALARNING	TEMURIYLAR	DAVRIDAGI	
AHAMIIYATI.	<i>Pardayeva M.D.</i>			85
АБУ НАСР АЛ-ФАРОБИЙНИНГ	ТАСАВВУФГА	МУНОСАБАТИ.		
<i>Саматов Х.У.</i>				91
МУСОХОНХЎЖА	ДАҲБИДИЙ	ТАЪЛИМОТИДА	БОРЛИҚ	
МАСАЛАСИ.	<i>Юлдашходжаев Х.Х.</i>			96
РОЛЬ	ИСЛАМА	В ВОСПИТАНИИ	ЭКОСОЗНАНИЯ	И
ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЧЕЛОВЕКА ЗА ЗЕМЛЮ.	<i>Касимова З.С.</i>			101
BUXORONING YETTI PIRI: MUQADDAS ZIYORATGOHLARINING				
BUGUNGI HOLATIGA NAZAR.	<i>G'ulomov I.K.</i>			104
JANUBI-SHARQIY	OSIYO	MINTAQASIDA	SO'FIYLIK.	
<i>Avliyoqulov U.M.</i>				107
MUHYIDDIN	IBN	ARABIYNING	IRODA	ERKINLIGIGA
OID FIKRLARI.	<i>Boltayev A.A.</i>			110
FAXRIDDIN ROZIYNING KALOM FALSAFASI.	<i>Eshpulatov I.S.</i>			114
ISLOM FALSAFASIDA TABIATNI ASRASH, ATROF-MUHITGA				
EHTIYOTKORONA MUNOSABATDA BO'LISH, EKOLOGIK				
MASALALARNING YORITILISHI.	<i>Ashurov N.B.</i>			118
YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY TA'LIMNING O'RNI:				
TAHLIL VA NATIJALAR	<i>Axmedova D.S.</i>			122
ISLOM FALSAFASI VA YOSHLAR TARBIYASI: TABIATGA MUHABBAT				
(AKSIOLOGIK YONDOSHUV).	<i>Abdullayeva Z.N.</i>			127
"MUXTASAR AL-VIQOYA" ASARI - ULUG' VA MO'TABAR FIHQIY				
MANBA.	<i>Raxmatova X.X.</i>			131
MARKAZIY OSIYO MUTASAVVUFLARINING ISLOM FALSAFASI				
RIVOJLANISHIDA TUTGAN O'RNI.	<i>Axmedova D.S.</i>			134
ФАЗЛ ИБН АХМАД ТАЪЛИМОТИДА НАФС ВА УНИ ТАРБИЯЛАШ				
МАСАЛАСИ.	<i>Солннова М.К.</i>			139
DINIY-IRFONIIY MEROS FAYLASUFLAR NIGOHIDA.	<i>Ortiqov O.I.</i>			143
O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH				
ISTIQBOLLARI.	<i>Sanaqulov A.N.</i>			146
IX ASR MOVAROUNNAHR MUHADDISLARINING ILMIY SAFARLARI VA				
ULARNING HADIS ILMI RIVOJIGA TA'SIRI.	<i>Jo'rayev M.X.</i>			149

ХОНДАМИРНИНГ “МАКОРИМ УЛ-АХЛОҚ” АСАРИДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИНИНГ АХЛОҚИЙ МУШОҲАДАСИ. <i>Вохидова М.Т.</i>	154
QAZVINIY “HIKMAT AL-AYN” RISOLASI. <i>Aliqulov R.A.</i>	158
YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI RIVOJIDA UCHINCHI RENESSANSNING O‘RNI. <i>Karimov B.X.</i>	161
ВЛИЯНИЕ СУФИЗМА НА ВОСТОЧНУЮ КУЛЬТУРУ. <i>Джусураев Х.Х., Хайруллаев С.Х.</i>	165
ТУРИЗМ И ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА. <i>Абдулаева Д.Ю.</i>	170
САДРИДДИН АЙНИ – ПРОДОЛЖАТЕЛЬ ШКОЛЫ ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВА В ТАДЖИКИСТАНЕ. <i>Джусураева Д.Р.</i>	174
ИЛК ТАСАВВУФИЙ ТАРИҚАТЛАРДА ОИЛА, НИКОҲ ВА ФАРЗАНД ТАРБИЯСИ МАСАЛАСИ. <i>Гафуров Д.О.</i>	179
ИМОМ БУХОРИЙ – ФАХРИМИЗ, ҒУРУРИМИЗ. <i>Элов Ж.Р.</i>	184
INSON KAMOLOTIDA TASAVVUF TA’LIMOTINING O‘RNI VA ROLI. <i>Alimova M.M.</i>	193
BUXORO JADIDLARI ILMIY MEROSIDA TASAVVUF VA KOMIL INSON MASALASINING FALSAFIY TAHLILI. <i>Saloxov A.Q.</i>	196
“MAKTUBOT”DA TASAVVUF TUSHUNCHALARINING YORITILISHI. <i>Muradov S.</i>	201
ВОПРОСЫ ПРИРОДЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ ПАНТЕИСТОВ. <i>Исаева Д.А.</i>	205
QODIRIYA BUNYODKOR TA’LIMOT. <i>Kodirova M.G.</i>	210
ЎЗБЕКИСТОНДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. <i>Султонова Л.С.</i>	213
МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ ҚАРАШЛАРИДА ДИНИЙ, МИЛЛИЙ- МАЎНАВИЙ ЭЪТИКОД. <i>Бердиева Г.А.</i>	217
БУХОРО ВИЛОЯТИДА “ЗИЁРАТ ТУРИЗМИ”НИ РИВОЖЛАНТИРИШДА “ЕТТИ ПИР” МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ ВА ТАРҒИБ ҚИЛИШНИНГ ЎРНИ. <i>Мусаев М.К.</i>	222
NOSIRIDDIN TUSIY VA UNING FAN TARIXIDAGI O‘RNI. <i>Sobirov U.B.</i>	225
РУДАКИЙ ВА УНИНГ ЗАМОНДОШЛАРИ ИЖОДИДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ. <i>Азимов А.А.</i>	228
QAZVINIY QARASHLARIDA BORLIQ MASALASI. <i>Aliqulov R.A.</i>	231
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СУФИЗМА В РАЗВИТИИ ИСЛАМА. <i>Жумаева Ш.С.</i>	234

ШАРҚ ВА ҒАРБ МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ФАЛСАФА ВА ИСЛОМ ДИНИНИНГ ЎЗИГА ХОС УЙҒУНЛИГИ.	
<i>Раҳмонов А.</i>	239
СУЛАЙМОН БОҚИРҒОНИЙ – СИЁСИЙ ҲОКИМИЯТ БИЛАН ТАСАВВУФНИ УЙҒУНЛАШТИРГАН МУТАСАВВИФ.	
<i>Сафарбоев О.</i>	242
ЯЎҚУБИ ЧАРХИЙ ТАЪЛИМОТИДА БИЛИШГА ОИД ҒОЯЛАРНИНГ ТАСАВВУФИЙ МОҲИЯТИ. <i>Зойиров Э.Х., Райимова Ш.</i>	246
BUYUK ALLOMALARIMIZNING TABIAT NE'MATLARINI ASRASH HAQIDAGI QARASHLARI. <i>Hikmatullayev O., Nurmatova N.U.</i>	252
YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETI KUCHAYTIRISH ISTIQBOLLARI. <i>Karimov B.X., Xursanova S.</i>	255
ПЕДАГОГЛАРДА КАСБИЙ КРЕАТИВЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. <i>Аблакулов Ш.Д.</i>	260
JAMIYATDA INSON QADRINI OSHIRISH VA UNING FAROVONLIGINI TA'MINLASH MASALASI. <i>Shodiyev J.J.</i>	264
АХМАД СИРХИНДИЙ “МАКТУБОТ” АСАРИНИНГ МОҲИЯТИ. <i>Мурадов С., Эркинов О.</i>	270
ЮСУФ ҲАМАДОНИЙНИНГ “САФАР ДАР БАТАН” РАШҲАСИНИНГ ЗОҲИРИЙ ВА БОТИНИЙ МАЗМУНИ. <i>Нурматова Н.У.</i>	272
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR. <i>Shodiyev J.J.</i>	277
TASAVVUF TA'LIMOTINING SHAKLLANISH TARIXI, MOHIYATI VA ASOSIY G'OYALARI. <i>Rajabov A.Sh.</i>	282
АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ТАСВВУФ ВА КОМИЛЛИК ТАЛҚИНИ. <i>Вохидова М.Т.</i>	285
ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА БАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИ. <i>Сиддиқов У.Ғ.</i>	289
ILK UYG'ONISH DAVRIDA TASAVVUFIY G'OYALARNING TARIXIY TAHLILI. <i>Alimova M.M., Xayitova Z.</i>	292
ИСЛАМ И ПРИРОДА. <i>Бердыева Г.А., Файзиев Р.</i>	296
ISLOMDA EKOLOGIYA MASALASI. <i>Sultonova L.S., Allayev X.R.</i>	299
МИҚДОР, СИФАТ ВА МЕЪЁРНИНГ ИНСОН САЛОМАТЛИГИДА НАМОЁН БЎЛИШИ. <i>Қурбонов Н.М.</i>	302
ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ СЕМИ ПИРОВ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА. <i>Шарипова С., Исоева Д.А.</i>	306

ZAKARIYA AL-ROZIY ASARLARIDA SALOMATLIK FALSAFASI. <i>Rajabov O.A.</i>	310
ИСЛОМ ДИНИДА ТИНЧЛИК ТАВСИФИ. <i>Шарунов Д.Б.</i>	312
“RASHAHOTU AYNIL-HAYOT” ASARIDAGI RASHHALARDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA DOIR G’OYALARNING FALSAFIY TAHLILI. <i>Qamariddinova G.A.</i>	315
NOSIRIDDIN TUSIY: RIYOZIYOT VA ASTRANOMIYA. <i>Sobirov U.B.</i>	320
ISLOM FALSAFASIDA TABIATNI ASRASH VA ATROF-MUHITGA ENTIYOTKORLIK BILAN MUNOSABAT. <i>Kalandarova F.A., Jumaeva N.E.</i>	322
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО КАК КРИТЕРИЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЗРЕЛОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ АБДУРАУФА ФИТРТА «РАХБАРИ НАДЖОТ». <i>Шарунова Л.А.</i>	324
TUSTARIY DUNYOQARASHIDA ODOB-AXLOQ MASALASI. <i>Raximov X.M.</i>	327
MUHAMMAD BOLTAYEV – MARKAZIY OSIYO MUTASAVVIFLARI MEROSINI O’RGANGAN OLIM. <i>Shamsiddinov Q., Asrorova M.U.</i>	329
YUSUF QORABOG’IYNING INSONNING AXLOQIY KAMOLOTI HAQIDAGI QARASHLARI. <i>Davronov O.U.</i>	332
TUSTARIY TA’LIMOTIDA ILMNING AHAMIYATI. <i>Raximov X.M.</i>	334
MUSTAQILLIK YILLARIDA O’ZBEK OLIMALARINING ILM-FAN, MADANIYAT RIVOJIGA HAMDA FAN VA TEXNIKA TARAQQIYOTIGA QO’SHGAN HISSALARI. <i>Elboyeva Sh.B.</i>	337
ONA TILI – O’ZLIK TIMSOLI. <i>Qurbonova M.B.</i>	341
ORIF DEGGARONIYNING TASAVVUFIIY-AXLOQIY QARASHLARI. <i>Bakaeva F.Sh.</i>	346
INSONLARDA KO’ROLMASLIK HISSI NAMOYON BO’LISHI: DINIY VA FALSAFIY QARASHLAR. <i>Jabborov O.A.</i>	349
ZIYORAT TURIZMINING TURIZM SOHASIDA TUTGAN O’RNI. <i>Elmurodova N.J.</i>	354
РОЛЬ ТУРКЕСТАНСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ ДЖАДИДОВ В НАЦИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖИ. <i>Равшанова Ш.Р.</i>	359
SHARQ VA G’ARB TAFAKKURIDA ISLOM FALSAFASI: ABU HASAN BAHMANYORNING O’RNI. <i>Hayotova N.Z., Bobomurodova M.B.</i>	362
VOLTER QARASHLARIDA FRANSIYA ABSOLYUTIZMINING TAHLILI. <i>Fayziyev X.J.</i>	365
ISLOMDA TASAVVUF TARIQATI. <i>To‘xtayeva Sh.Sh.</i>	369

SHARQ MUTAFAKKIRI NARSHAXIYNING IJODIDA FALSAFA VA ISLOMNING BETAKROR UYG'UNLIGI. <i>Kalandarova F.A.</i>	373
TURKISTON VA OZARBAYJON JADID MUTAFAKKIRLARI FAOLIYATIDAGI UYG'UNLIK MASALASI. <i>Haqqulov N.Q.</i>	375
ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ АБУ НАСР АЛЬ-ФАРАБИ. <i>Хасанова З.Д.</i>	378
HAKIM DAVOIYNING "FAVOYID AL-INSON" ASARIDA SALOMATLIK FALSAFASI. <i>Rajabov O.A.</i>	380
AMIR SHOHMURODNING TASAVVUF TA'LIMOTIDA TUTGAN O'RNI. <i>Subxonova N.A.</i>	383
YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI VA UNING IJTIMOY-FALSAFIY JIHATLARI. <i>Qaxxorova S.Q.</i>	388
YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MA'NAVIY-MA'RIFIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY JIHATLARI. <i>Qaxxorova S.Q., Muxiddinova M.</i>	393
DISRUPTION AS A CATALYST FOR RENEWAL: HISTORICAL PERSPECTIVES ON COLLAPSE AND INNOVATION. <i>Kodirova M.G.</i>	397
ИСЛОМ ДИНИДА АТРОФ МУХИТГА БЎЛГАН АКСИОЛОГИК ЁНДАШУВЛАР. <i>Ғуломов А.Б.</i>	401
ШАХС ИЖТИМОЙ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ ЎРНИ. <i>Халикова С.Т.</i>	404
«ЧИБИРДОН ОТА» ТАРИХИЙ-МАЪРИФИЙ РИСОЛАСИ ҲАҚИДА. <i>Раҳмонов А.</i>	407



**MARKAZIY OSIYO TAFAKKURIDA ISLOM
FALSAFASINING TADRIJIY RIVOJI**

**«ПОЭТАПНОЕ РАЗВИТИЕ ИСЛАМСКОЙ
ФИЛОСОФИИ В МИРОВОЗЗРЕНИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ
АЗИИ»**

**“STAGED DEVELOPMENT OF ISLAMIC PHILOSOPHY
IN THE WORLDVIEW OF CENTRAL ASIA.**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY -NAZARIY
KONFERENSIYA**

Buxoro shahri, 2025-yil 15-may